

POLEMIKADA BAHSLASHISH MADANIYATI VA ETIKA MUAMMOLARI

E'tiqodxon ATAQULOVA

dotsent v.b.

filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

etaqulova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada baxslashish etikasi, muloqot madaniyati borasida so'z boradi. Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. U axborot almashishni o'z ichiga oladi. Muloqot yordamida odamlar muayyan maqsadga qaratilgan ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qiladilar. Muloqot jarayonida har doim ham tomonlarning maqsadlari, manfaatlari mushtarak bo'lavermaydi. Bu esa o'zaro qarama-qarshiliklar, tortishuvlar fikrlar to'qnashuvi yoki turli bahs-munozaralarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bahslashishning bir turi sifatida, san'at darajasida ulug'langani bu polemikadir. Shu o'rinda uni matbuot sahifalariga ko'chirish, polemika matbuotning xabardorlik funksiyasidan tashqari fikr uyg'otish, muayyan masala bo'yicha omma fikrini shakllantirish, plyuralizm vazifasini ham bajaradi. Polemik maqolalar odatda jamiyatning biron bir sohasida, muayyan muammo atrofida bahs-munozara, tortishuvlar, turli fikrlar paydo bo'lganda matbuot yuzini ko'radi.

Tayanch so'zlar: polemika, plyuralizm, muhokama, matbuot, tolerantlik, proponent, opponent, bahs-munozara, ommaviy axborot vositalari, kontent

КУЛЬТУРА ДЕБАТА И ЭТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ В ПОЛЕМИКЕ

Эътикодхон АТАКУЛОВА

Доцент

доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Университет журналистики и

массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

etaqulova@gmail.com

Аннотация

В статье рассматриваются этика дебатов и культура общения. Общение — это процесс, присущий только людям. Он предполагает обмен информацией. С помощью общения люди работают вместе, чтобы удовлетворить свои потребности, направленные на достижение определенной цели. В процессе общения не всегда цели, интересы сторон являются общими. Это приводит к возникновению взаимных противоречий, споров, конфликтов мнений или различных споров. Как форма аргументации, прославляемая на уровне искусства, является полемикой. В этот момент, когда мы переносим его на

страницы прессы, полемика, помимо информативной функции прессы, также выполняет функцию пробуждения мнения, формирования общественного мнения по конкретному вопросу, плюрализма. Полемические статьи обычно попадают в прессу в той или иной сфере жизни общества, когда вокруг той или иной проблемы возникают споры, различные мнения.


Ключевые слова: полемика, плюрализм, дискуссия, пресса, толерантность, сторонник, оппонент, дебаты, СМИ, контент.

Bahslashish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish insonning umumiy madaniyatini belgilovchi o'ziga xos harakat hisoblanadi. Muzokaralar jarayonida bahslashish taktikasi va strategiyasini to'g'ri ishlab chiqish, bahslashish madaniyatining umumiy qoidalariga amal qilish tomonlarning tabiati, bilimi, dunyoqarashi, qobiliyati va tarbiyasiga bog'liq. Bahslashish bu turli fikr va nuqtayi nazarlarning to'qnashuvi bo'lib, u odamlarning dunyoqarashini kengaytirish va muayyan masalalar bo'yicha yechim topishda samarali vosita hisoblanadi. Ammo bu jarayonda bahslashish madaniyati va etika qoidalariga rioya qilmaslik ziddiyatlarni kuchaytirishi, hatto ijtimoiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Bahslashish bir necha tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi.

- har qanday bahsda ob'yekt-subyekt, ya'ni shaxslararo munosabatlarning to'qnashuvi har ikki tomon ishtirokchilari mavjudligi bilan belgilanadi;

- bahsda bir tomon o'zining tezislari ilgari sursa, unga qarama-qarshi tomon esa uni tanqid qilishi, shubha ostiga olishi, qarshi tezisni taqdim etishi lozim [7].

Bu yerda turli mulohazalari bilan bahsga chorlovchi, olib chiqilgan mavzuni himoya qiluvchi shaxs "proponent" (qo'llab-quvvatlovchi) deb nomlanib, fikrni inkor etuvchi, qarshi dalil ko'rsatuvchi shaxs "opponent" (raqib) deb ataladi. Ko'p hollarda bahsda oddiy auditoriyaning ham ishtiroki ko'rinadi. Bu vaziyatda auditoriya muhokama qilinayotgan mavzu doirasida o'z qarashlari, nuqtayi nazari va pozitsiyasiga ega bo'lgan jamoa hisoblanadi.



Bahslashishda nafaqat bir shaxsning ikkinchi shaxs bilan, balki guruhlararo bahslashish ham mavjud. Aynan matbuotning kelajagi borasidagi bahslarda onlayn nashrda faoliyat olib boruvchi jurnalistlar bilan an'anaviy matbuot vakillari o'rtasidagi bahsni misol qilishimiz mumkin. Jumladan, Sh. Shokirjonovning «Majburiy obuna sxemasi. Mushtariyga majburan tiqishtirilayotgan nashrlardan nima naf?» [10] sarlavhali maqolasida, *“To‘g‘ri-da, jon kuydirib ishlash o‘rniga, bir-ikki oy davomida qayerdadir **yaxshi gapirib**, ayrim joylarda **yalinib**, qayerdadir **do‘q-po‘pisa** bilan ishni bitirib, obunadan bir yil mobaynida **mayda chaynab yeyishga yetadigan mablag‘** to‘plash – ba’zi tahririyatlarning asosiy ishi bo‘lib qolgan. Obuna qay tarzda uyushtirilayapti, pul qanday yig‘ilayapti, mushtariy rozimi oyligidan shu pulni berganiga, o‘zi unga qiziqmi shu nashrni o‘qish – **yigirmanchi o‘rindagi masala**”*, – deb keltiradi. Bunga javoban, Nodira Do‘stmatova «Toshingizni o‘ylab oting» [11] sarlavhali maqolasi bilan javob qaytaradi. *“Hurmatli Shuhrat Shokirjonov, juda to‘g‘ri, hayajonli satrlarni yozibsiz, rahmat. ...sizning bu kibrona gaplaringizni o‘qib shunchalar... **bekorchi ish (ya’ni, boshqalar hisobidan kun ko‘rish) bilan band ekanliklaridan uyalib shu kunlarda tezda kasblarini o‘zgartirsalar ajabmas**. Siz va “Davriy nashrlar kerakmi?” deya har yili obuna mavsumida zavq bilan **jar soladiganlar** xursand bo‘lsa bo‘ldi... “**Gadoning dushmani gado bo‘ladi**”, deganlaridek har yili obuna mavsumi boshlanar boshlanmas, sizga o‘xshagan ba’zi **kalondimog‘** jurnalistlar gazeta-jurnallarda ishlovchi hamkasblariga qarshi **tayoq ko‘tarib maydonga chiqishadi**,*

...tahririyatlarning ustidan kulib, kaltaklab, butunlay jamiyat hayotidan o‘chirib tashlashsa, **“qahramonga”** aylanishadi... Xohlagancha **qahramon** bo‘laving, faqat birovni **haqorat** qilish evaziga emas!” Bu bahsda fikrlar kurashining eng yuqori cho‘qqiga chiqqanini ko‘rish mumkin. Sh. Qo‘shoqovning fikricha, bahs olib borishda tolerantlik (bag‘rikenglik) tamoyiliga tayanish muhim ahamiyatga ega [8]. Ya’ni, bahslashish madaniyatiga amal qilish, qarshi tomonning fikrlarini hurmat bilan tinglash, agar asosli tanqid bo‘lsa, uni qabul qilish, o‘zaro munosabatni saqlashda axloq qoidalariga amal qilish talab etiladi. Biroq fikrimizcha, bahsda har doim ham bu tamoyilga amal qilinmaydi. Buni yuqoridagi misolda ham ko‘rish mumkin. Shuhrat Shokirjonov keltirgan fikrlar haqiqatga yaqin bo‘lishiga qaramasdan, opponent Nodira Do‘stmatova buni rad etadi. Biroq, har ikki tomonda ham haqoratli so‘zlarni ko‘rish mumkin. To‘g‘ri, bahsga kirishuvchilarning maqsadi g‘alabaga qaratilgan bo‘ladi, bu yo‘lda ular turli usullarni qo‘llashi, har xil yondashishi mumkin. Biroq, muallif shaxsiyatiga nisbatan adovat bilan haqoratli so‘z va jumalarni qo‘llash noo‘rindir. Lekin polemik maqolaning jozibasini ko‘rsatib berish, ta’sirchanligini oshirish maqsadida sarkazm (achchiq kinoya, piching, istehzo), jizzakilik kabi jumalardan foydalanish, opponentning munosabatini ochib berishga yordam beradi. Misol uchun, jurnalist Muhammadjon Obidov bir maqolasida shunday yozadi “...gazetaning salkam bir sahifasini egallagan e’tiroznomasini “kichik bir maqolada” deb baholaydi va qalamga olganlarimiz dengizdan tomchi” deydi. Demak, salgina “batafsilroq” yozishsa, hamma yerni suv bosib ketar ekanda-a? Ha, mayli. Aslida suv ham kerak. Axir undan elektr energiyasi olinadiku?! Har holda suvning yaratilishiga “adolat”chilar da’vogarlik qilolmasa kerak”[4]. Bu yerda kuchli kesatish qo‘llanilgan. Norqobil Jalilning “Hokimlar gazeta o‘qi(ma)ydi, vazirlar-chi?” [12] maqolasida “Muhtaram rahbarlarimiz matbuotga **tirnoq tagidan kir qidiradigan dushman** deb emas, **achitib gapiradigan chin do‘st** deb qabul qilishni o‘rganishlari kerak”. Isomiddin Po‘latovning “Majburiy obuna qilishsa, menga ayt. O‘zim ta’zirini beraman, qahramon bo‘laman!” maqolasi kinoyali sarlavha bilan

boshlangan, “... “Jiddiy” gazetalar o‘ta jiddiylashib ketdi. **Kam eshitadigan, ko‘p gapiradigan bo‘lib qoldi. Orol qurib bordi, nashrlar sahifalarini suv bosdi...** Katta yozuvchi aytganidek, **mazmun degan narsa bir paqir suvning ustida suzib yurgan yog‘ga o‘xshab qoldi. ...Xodimlar qarg‘a “qag” etganda bosiladigan tanqidiy, tahliliy materiallar bilan gazetxonni ushlab turishiga ishondi...**” kabi piching jumalardan foydalanilgan.

- Bahslashishda bu kabi usullarda foydalanish bahsni kulminatsion nuqtasiga chiqqanidan darak beradi. Aslida bahslashishning eng jozibasi ham shunda. Faqatgina adovat, nafrat tili va haqorat bahslashish madaniyatining salbiy xususiyatlariga kiradi. Bahslashish turli sohada, har xil mavzularda yuzaga keladi. Aynan, o‘zbek matbuotida 1980–1990 yillarda bahslashish madaniyati, qarama-qarshi nuqtayi nazarda bo‘lgan kishilarning muomala madaniyati, o‘zini tutish, bahslashuvchining izzat-nafsiga tegmasdan, haqoratlamasdan o‘z nuqtayi nazarini fakt va dalillar bilan ifodalash kabi yo‘llari ko‘p muhokama qilingan. Shu davrda matbuotda adabiyotshunoslik, adabiy tanqidchilik va manbashunoslik bilan bog‘liq bahslar chop etilgan. Jumladan, matnshunos olim V. Rahmonovning “Adabiy idroq tantanasi” maqolasida matnshunoslikdagi muammolar, xususan, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”i nashridagi xato va kamchiliklar tilga olinadi. Olim o‘z fikrlarini asoslab, mutaxassis sifatida tahlil qiladi. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul esa “Sanamay-sakkiz demaylik” sarlavhali maqolasida V.Rahmonovning dalillarini gina-qudrat ohangida rad qiladi. U bahs samaradorligining asosiy omillari haqiqat, adolat, samimiyat, beg‘arazlik, tantilik, xolislik kabi insoniy xislatlar ekanligini ta’kidlasa-da, amalda o‘zi bunga rioya etmaydi [9]. Yoki Zuhridin Isomiddinovning “Sarkash savollari” maqolasi doirasida kechgan bahsda Mirzo Kenjabek o‘zining “Jaholatning chegarasi bormi?” sarlavhali maqolasi bilan bahsga kirishadi. Biroq muallifning pozitsiyasida tajovuzkorlik kayfiyati sezilib turadi. Aslida esa, opponent qanchalik nohaq bo‘lishidan qat’iy nazar, qo‘pol munosabatda bo‘lish, muallifni haqorat qilish bahslashish madaniyatining zid holatlaridan biridir.

- Polemik maqolada ilgari surilgan asosiy g'oya – o'rtaga tashlangan fikrning to'g'riligini isbot qilishdir. Bunga rioya etish murakkab bo'lib, uning bir necha sabablari bor. Shulardan biri jurnalistga yaxshi ma'lum bo'lgan voqelikning isbot-dalilini izlab topishdir.

- Dalil – matnda jurnalist fikrining to'g'riligini isbotlovchi mantiqiy asosdir. To u dalil bo'lguniga qadar jurnalist uchun odatda fakt nomi bilan mavjud bo'ladi. Agar bahs-munozara muayyan bir muammo xususida borsa, bahslashuvchining fikri noto'g'ri va buni aniq dalillar bilan isbotlash imkoni bo'lsa ham, ushbu fikr yoki dalilga nisbatan qo'pol munosabat bildirish, kesatq, hatto haqoratli iboralarni qo'llash noo'rindir. Afsuski, polemik maqolalarda bunday so'zlardan foydalanish holatlari ko'p uchraydi. Polemika amaliyoti asli murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Uning mohiyati faqat maqsad bilan emas, balki muhokama qilinayotgan muammoning ijtimoiy ahamiyati bilan ham belgilanadi. Polemika jarayonida milliy manfaatlar, jamiyatning ayrim ijtimoiy qatlamlari manfaatlariga bahsga tortiladi. Uning o'ziga xosligi shundaki, muallif o'zi uchun ixtiyoriy tanlangan OAV orqali, qulay vaqtda bahsga kirishishidir. Unda har bir bahslashuvchi o'zining saviyasi, fikr va faktdan foydalana olish mahoratini va yondashuvini namoyish etadi.

- Har qanday tortishuvda bo'lgani kabi polemikada yolg'on, asossiz dalillarni qo'llash, o'zi amin bo'lmagan faktga ishonish va ishontirish yoki axborot manbasini tekshirib ko'rmaslik kabi holatlar bahslashuvchining mag'lubiyati bilan yakun topadi. Bahsning asosiy talabi – aniq dalil, izchil nutq va sodda uslubdan foydalanishdir [6]. BBS News'ning "Bahslashish madaniyati qayerda qoldi?" [13] nomli maqolasida aynan o'zbek xalqining ijtimoiy tarmoqlarda qo'pol, haqoratli so'zlardan foydalanayotgani haqida so'z boradi. "ziyouz.com" internet loyihasining asoschisi Davronbek Tojialiye'vning BBS bilan bo'lgan suhbatida "Ba'zida hatto bahsga turtki bergan asosiy mavzu chetda qolib, mutlaqo boshqa mavzuga o'tib ketiladi. Bundan tashqari, bahslashuvchilarning millati, dini va boshqa jihatlarini

haqoratlash ham uchraydi. Bu bahslashuvchining madaniyati va ilm darajasiga bog‘liq” [13] deb keltiradi.

- Masalan, “Ishonch” gazetasida Muhammad Ziyoning “Xonobod shahri hokimi otasi muharrir bo‘lgan gazetani tugatishga qaror qildi” [2] nomli xabar e‘lon qilinadi. Xabar gazetaning “Facebook” tarmog‘iga ham joylanadi. Unda keltirishicha, hokim 2023-yil 3-aprel kuni Vazirlar Mahkamasining “Davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalarni qayta tashkil etish va tugatishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ish ko‘rgan. Biroq, bu fakt ikkinchi darajaga tushadi, otasi muharrir bo‘lgan gazetani yopilishiga sababchi bo‘lgan o‘g‘il asosiy planga chiqadi. Bahsda bir qator markaziy nashrlarning bosh muharrirlari Norqobil Jalilov, Halim Sayid, Husan Ermatov, Abdurasul Jumaqulov va taniqli jurnalistlar Abror Zohidov, Shuhrat Ro‘ziyev va boshqalar ishtirok etadilar. N. Jalilov *bahsni boshlab beradi*: “Ismiyam bejiz Mash‘al emas ekan, matbuotni o‘ldirgan hokim sifatida tarixda qoladi” desa, bunga javoban Halim Sayid *“...aka masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Agar rost bo‘lsa muharrir otaning tarbiyasi bu... O‘g‘il otamdan boshqa hech kim qiynalmasin dedimikan”*.

- Shuhrat Ro‘ziyev esa, *“Otam rahmatli aytardi. Ota quradi, bola buzadi”*, deb. Anvarjon Halimov: *“Afsuski, ko‘tarilgan mavzu qolib, maqola muallifi bilan bahslashayotganlar, aslida matbuot nima ekanligini tushunmaydilar, shekilli”*.

- Husan Ermatov: *“Menimcha, gap o‘g‘ilda emas...”*.

- Abdurasul Jumaqulov: *“Otasini ham, matbuotni ham xafa qilibdi. Ishonchim komil, o‘g‘lining bu ishidan otasi ham xursand bo‘lmasa kerak! Bu bahsda ko‘tarilgan mavzu qolib o‘g‘ilga nisbatan nafrat uyg‘ongan”*.

- Shavkat Karimov: *“Abdurasul Jumaqulov, bu aniq, nonko‘rlik”*.

- Orif Xojiyev: *“Yaxshi gumon, otasi qiynalganini ko‘rib o‘sgan farzand boshqa bolalarning otasiga bu azobni ravo ko‘rmadi”*.

- Odiljon Inamov: *“Matbuotda topilgan nonni yeb voyaga yetgan farzandning “dono” qarori..”*.

- Azizaxon Soliyeva: *“tuzliqqa tupurgan o‘g‘il”*.

• Ushbu bahsni boshida matbuot, gazeta taqdiri emas, “qahramon o‘g‘il” muhokamasi avj oldi. Nizo ishtirokchilari fikrlaridagi mantiqiy xatolar, bahslashishning sababi nima bo‘lishidan qat’iy nazar, ular qasddan yoki aksincha, muloqotni qiyinlashtiradi, haqiqatni izlashga, to‘g‘ri qaror qabul qilishga halaqit beradi. Shuning uchun polemistlar nutqlarni minimallashtirishga, raqiblarning fikrlashlarida mantiqiy xatolarni topishga, raqiblarning hiyla-nayranglarini fosh etishga harakat qilishadi [1]. Tadqiqotchi S. Turabova bahslashish jarayonida agar raqibni tanlash imkoni bo‘lsa, quyidagi taktikalarga amal qilishni tavsiya etadi [7].

- - *Nodonlar bilan bahslashmang*. “Odam qanchalik darajada johil yoki axmoq bo‘lsa, – deb yozadi S. I. Povarning, – u murakkab fikr yoki murakkab dalilni shunchalik past darajada tushunadi va ma’qullaydi” [5].

- - *Sofistlar bilan bahslashmang*. Har qanday yolg‘on va hiylalardan foydalanishga moyil bo‘lgan, haqiqatni nisbiy deb biladigan ayyor odamlarni “o‘z hududi doirasida” yenga olishga ko‘zingiz yetmasa, yaxshisi bahslashmang.

- - *E’tirozlarni eshitishni bilmaydigan “janjalkash, bahschi” odamlar bilan bahslashmang*. S. I. Povarnin bunday toifadagi bahslashuvchilarni quyidagicha tasvirlaydi: “U bahs mavzusini doimiy ravishda unutib qo‘yadi, alohida so‘zlarga yopishib oladi, fikrini tez o‘zgartirib turadi, raqibning gapini bo‘lib, uning gapirishiga yo‘l bermaydi, imkon topildi deguncha, o‘zi raqibini gapirishga yo‘l qo‘ymayotganlikda ayblab, baqir-chaqir qiladi” [5].

- *Ogohlik*. Uning vazifasi raqibning bahs-munozara tezisini qanday tushunayotganini aniqlash, bu jarayonda qo‘llanilayotgan tushuncha va so‘zlarni bir xilda tushunilayotganiga ishonch hosil qilish. Gohida bir tomon bir so‘z bilan boshqa narsani nazarda tutsa, ikkinchi tomon xuddi shu so‘z bilan umuman boshqa narsaga e’tibor beradi.

- *“Umumiy zamin” mavjudmi*, har ikkala tomon ham teng darajada qabul qiladigan bahs-munozaraning umumiy asosi, faktlar, fikrlar va g‘oyalar mavjudmi? Madaniy paradigmlar ijtimoiy, milliy, diniy stereotiplar, odatlar darajasini

o'rganish [7]. Bahslashishning ham o'z qonun-qoidolari bo'lib, u muammo yuzasidan bahslashuvchiga hech qanday tazyiq ko'rsatmaslikni, har qanday shaxsning erkin fikr bayon etishiga imkon bergan holda, uning fikrlarini tamoman zidlashib ketishiga yo'l qo'ymaslikni, munozaradan kelib chiqadigan xulosa va qarorni ochiq qoldirish hamda uni o'quvchilar hukmiga havola qilishni taqozo etadi. Asosiysi, bosh hakam auditoriya ekanligini unutmagan holda, qarama-qarshi tomon bilan bahslashish madaniyati, odob-axloq me'yorlariga amal qilish talab etiladi. Qolaversa, bahslashishda birovning haq yoki nohaq ekanligini isbotlovchi dalil, u keltirgan hayotiy fakt, uni asoslovchi fikr muhim [9]. U yoki bu fikrni dalillash o'z hukmlarining to'g'riligini isbotlashdan, balki raqibning nuqtayi nazarini rad etish, dushmanning noto'g'ri da'volarini fosh qilish qobiliyatidan iborat. Polemik maqolalarda rad etishning quyidagi usullari mavjud.

- *Soxta tezisni faktlar bilan rad etish* eng samarali usul hisoblanadi. Polemiklar ushbu sinovdan o'tgan vositaga ko'pincha ommaviy ma'ruzalarda, ochiq nutqlarda, yig'ilishlarda murojaat qilishadi. Ushbu usulda haqiqiy voqealar, hodisalar, statistik ma'lumotlar, eksperimental tadqiqotlar natijalari, tezisga zid bo'lgan guvohlik, rad etilgan hukmlar buzilmasdan ochib beriladi. Rad etishning samarasiz usuli bu dalillarni tanqid qilishdir. Ba'zida polemistlar raqibning tezisining noto'g'riligini ko'rsatish uchun shunchaki uning dalillarini ta'kidlaydilar va fikrlarini rivojlantiradilar. Biroq, boshqalarning dalillari nomuvofiqligini isbotlamasdan rad etish mumkin emas. Namoyishni rad etish, ya'ni tezis dalillardan kelib chiqmasligini aniqlash kabi usul polemikada muhim rol o'ynaydi. Vazifa raqibning fikrlash jarayonini tahlil qilish va uning taqdimotida mantiqiy bog'liqlik yo'qligini ko'rsatishdir. Tajribali polemistlar o'z nuqtayi nazarini himoya qilish va raqibning fikrini rad etish uchun bir vaqtning o'zida bahsda bir nechta rad etish usullaridan foydalanadilar. Eng samarali vositalari hazil va kinoyadan foydalanish hisoblanadi [3]. Shu yerda savol tug'ilishi tabiiy. Xo'sh, qanday bahslashish kerak. Bu borada birinchi ko'rsatma, jurnalistlarning umumiy kasb odob me'yorlariga amal qilish va shu bilan birga quyidagi ko'rsatmalarni

qo'llash maqsadga muvofiqdir. Jiddiy bahs-munozara jiddiy faktlarni talab etadi. Ammo o'quvchilar auditoriyasiga faktlarni isbot qilish faqat mavzuning jiddiyligi bilan bog'liq emas. Bunda fakt manbalari muhim rol o'ynaydi. Polemik maqola ko'pincha:

- 1. Muhokamaga tortilgan u yoki bu voqea bo'yicha muallifning shaxsiy kuzatuv natijalariga ega bo'lishi;
- 2. Jurnalistning, axborotga murojaat qilgan boshqa kishilarning guvohligi;
- 3. Muhokama qilayotgan masalaning mazmunini ifoda etuvchi hujjatlarga ega bo'lishi kerak [9]. Demak, birinchi o'rinda, mavzu doirasida yaxshi o'rganish va dalillar topish muhim sanaladi. Ikkinchi o'rinda bahslashish davomida xolis, manfaatlar nuqtayi nazaridan tashkil etilmaganiga amin bo'lish lozim. Bunda har ikki tomon ham bir-birini tinglashi, tushunishi va o'zaro hurmatni saqlashi kerak. Raqibning dalil va keltirgan misollari orqali uning pozitsiyasini tezda aniqlash bahsning mazmunli bo'lishiga yordam beradi. Bahslashish jarayonida suhbatdoshning hatti-harakatlari, ko'z qarashlari, mimikasini kuzating. Raqibingizga bir nechta savollarni chalkashib ketishi mumkin bo'lgan javoblari bilan berib, tashabbusni o'z zimmangizga oling. Bunday holda, tashabbus savol beruvchining qo'lida bo'ladi [14]. Bahslashish madaniyatini samarali olib borish uchun bizningcha, quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim hisoblanadi.
- Hurmat va bag'rikenglik. Har bir kishi o'z fikrini bildirish huquqiga ega. Opponentning fikrini tinglash va unga hurmat ko'rsatish bahsni ijobiy yo'nalishda davom ettirishga yordam beradi.
- Dalillarga tayanish. Emotsional chiqishlar va shaxsiyatga tegishdan ko'ra, mantiqiy va faktlarga asoslangan argumentlar keltirish muhim.
- O'z-o'zini nazorat qilish. Bahs davomida his-tuyg'ularni nazorat qilish va muvozanatni saqlash madaniyatning muhim ko'rinishidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, davriy nashrlarda chop etilayotgan polemik maqolalarda imkon qadar bahslashish madaniyatiga, kasb odobiga e'tibor beriladi.

Biroq, ijtimoiy tarmoq va onlayn mediada bahslashish madaniyatining qo‘pol ravishda buzilish holatlariga ko‘p duch keldik. Zero, polemikaning har bir ishtirokchisi ko‘tarilgan muammo, o‘rtaga tashlangan mavzuni muhokama qilishda axloq me‘yorlariga amal qilishi, muammoni hal qilishning samarasi uchun jamiyat oldida mas‘ul bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ивин А.А. Искусство правильно мыслить. — Москва: Просвещение, 1990.
2. “Ishonch” gazetasi, 2023-yil 22-may.
3. Минеева С.А. Полемика – диспут – дискуссия. – Москва: Знание, –1990 .
4. Обидов М. Мен кўрган дунё. –Тошкент: Янги аср авлоди, –2016. –175 б.
5. Поварнин С.И. Искусство спора: О теории и практике спора. – М., – 1993. Гл Х. – С.42.
6. Тертычный А. А. Жанри периодической печати: учебное пособие: – Москва: Аспект Пресс, 2000.
7. Turabova S. Ilmiy bahs (debat, diskussiya, polemika, disput)ning mantiqiy-epistemik tahlili (monografiya). – Termiz: Surxon-nashr, – 2020. – 84 b.
8. Qo‘shoqova Sh. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Samarqand: SamDU, – 2014. –123 b.
9. Qurbon, Nazira. Tahliliy jurnalistika: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Bayoz, – 2019. –114 b.
10. <https://www.kun.uz%2Fnews%2F2018%2F10%2F25%2Fmazburij-obunashemasi-ukuvciga-mazburan-tikistirilaetgan-naslardan-nima-naf> (murojaat sanasi: 27.12.2023).
11. <https://www.kun.uz%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F11%2F26%2Ftosingizni-ujlab-oting> (murojaat sanasi: 27.12.2023).
12. <https://www.uzlidep.uz> (murojaat sanasi: 12.12.2023).

13. Bahslashish madaniyati qayerda qoldi? URL:
https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2016/01/160119_lati_culture (murojaat sanasi:
13.02.2024).

14. Qanday bahslashish kerak. <https://uz.family-relation.com/10806445-how-to-debate> (murojaat sanasi: 14.02.2024).